

Uchtepa tumani hududida joylashgan ta'lim muassasalari holati o'rganildi

// 14.03.2025

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/uchtepa-tumani-hududida-joylashgan-ta-lim-muassasalari-holat>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-martdagi F-18-sonli farmoyishida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan "O'zkiyosanoat" AJ rahbariyati va mas'ullaridan iborat ishchi guruhi tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi raisining o'rinbosari S.Mirzayev, "O'zkiyosanoat" AJ boshqaruv raisining o'rinbosari A.Kurbanov hamda Uchtepa tumani hokimi o'rinbosarlari hamrohligida mazkur tuman hududida joylashgan umumta'lim maktabi va maktabgacha ta'lim muassasalarining holatlari o'rganildi.

Tumandagi 365 va 469-sonli maktabgacha ta'lim muassasalari binosining fasad qismi va xonalari ta'mirtalbligi, eshik-romlarining yangisini o'rnatish, zamonaviy shart-sharoitlarni yaratish zarurligi aniqlandi.



"O'zkimyosanoat" AJ tomonidan ushbu maktabgacha ta'lim muassasalarini kapital ta'mirlashda moddiy yordam ko'rsatish masalalari muhokama qilindi. Tuman hokimligi vakillari bilan pudratchi korxonalarni aniqlash bo'yicha vazifalar belgilandi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati